

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13863519>

## INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN SHE’RLARDAGI BO‘G‘INLAR BERILISHI VA ULAR ORASIDAGI FARQLI JIHATLARI

**Dilmurodova Malika**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti 4-kurs talabasi

E-mail: [dilmurodova1711@gmail.com](mailto:dilmurodova1711@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada biz ingliz tilidan o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinadigan she‘riyat va uning turli jihatlariga e‘tibor qaratamiz va taqqoslab ko‘ramiz. Shuningdek ularning mohiyati, farqli jihatlari, she‘riy tarjimada so‘zlarning qo‘llanilishi bilan bo‘g‘liq bo‘lgan tahlillarni ko‘rib chiqamiz.*

***Kalit so‘zlari:** aruz fonetikasi, bo‘g‘inlar orasidagi farq, bo‘g‘in turlari, she‘rlarda hamohanglik, tillarda tahlil, shoirlar ijodi.*

Tarjima ijodiy jarayon bo‘lib, boshqa tilda asarni qayta yaratish san‘atidir. She‘riyat ma‘lum bir ritmga asoslanadi va unda qo‘llanadigan turli xil san‘at she‘riy musiqani amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shuningdek har bir she‘r o‘zing xususiyatiga va yozilishiga, bo‘g‘inlar soniga, ritmiga va ohangiga ega bo‘ladi. She‘riy asarlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish davomida undagi asosiy ma‘lumotlar va hayotiy obrazlarni saqlab qolish mukammal vazifalardan biri, shuningdek tarjimon olimlarning fikriga ko‘ra she‘rdagi mazmun-mohiyat asl holidek saqlanishini ta‘kidlashadi[1].

Bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishga talab yildan yilga oshib bormoqda va hozirgi kunda katta e‘tibor qaratib borilmoqda. Ingliz tilidagi ana‘naviy she‘rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishdan avval, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi farqlarni yaxshi

bilib olish kerak. Qiyosiy tipologik jihatdan bu ikki tilni tahlil qilsak, german tillari oilasiga mansub ingliz tili hamda o‘rol-oltoy guruhiga tegishli turkiy tillar oilasiga kiradigan o‘zbek tilining she‘riyatdagi o‘xshashliklari va farqli tomonlariga alohida e‘tibor qilish kerak.

Bir tildan ikkinchi tilga she‘riy asarlar tarjimasi jarayonida bo‘g‘inlarda kechadigan o‘zgarishlar:

Masalan, Shotland shoiri Byornsning ichki kechinmasi, ruhiy holati va qalb iztiroblarini o‘zbek tarjimoni Begoyim Xolbekova ona tilimizga poetik mahorat bilan qayta yaratdi. Biz ushbu she‘rni bo‘g‘inlar soni jihatdan tahlil qilamiz:

**Asliyat:**

*Louis, what reck I by three, (5+3)*

*Or George on his ocean. (5+4)*

*Dyvor, beggar louns to me (1+6)*

*I reign in Jeanie ‘e bosom! (5+6)*

*Let her crown my love her law, (4+3)*

*And in her breast enthroned me; (5+4)*

*Kings and nationas swith awa (5+4)*

*Rrif randies, I disown ye! (4+4)*

**Tarjimada berilishi:**

*Dengiz qiroli Jorj Lui, (6+2)*

*Kim bo‘libdilar oldimda! (4+4)*

*Jiynday aziz yorning o‘yi, (4+4)*

*Yashab turganda qalbidimda! (5+3)*

*Yor ko‘nglining qiroliman, (4+4)*

*Baxtim bo‘ylaydi ko‘k qadar (5+3)*

*Mening oldimda qirollar, (5+3)*

*Qirolmas, yo‘q bir darbadar! (4+4)*

Bu she‘riy asarda asliyat va tarjima orasidagi farqi va bu she‘riy asarlarni tarjima qilish jarayonlari eng murakkab vazifalardan biri sanaladi. Tarjimonning ingliz tilida qilgan ijodida bo‘g‘inlar soni har bir qatorda turlicha aks etgan.

Odilova G. ning o‘z ijodi davomida keltirib o‘tgan she‘riy asarlarida: „Ingliz tilida olib boriladigan she‘riy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish bo‘yicha qo‘llanmalar mukammal ishlab chiqilmagan“ deya aytib o‘tadi. O‘zbek adabiyotida badiiy tarjimachilikka o‘z hissani qo‘shgan **Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Zulfiya, Mirtemir** kabi shoirlar va ulug‘ olimlarning ijodlari yaqqol misol bo‘la oladi[2].

O‘zbek tili she‘riyatida bayt, turoq, rukn, aruz, misra, qofiya va bo‘g‘in kabi atamalar keng qo‘llanadi. Aruz fonetikasi hijolar, bo‘g‘inlarning tuzilishi va turlari,

bahrning tashkil topishi, ruknlarning xilma- xilligi va turlari o‘zbek aruziga xos. Cho‘lponning „Go‘zal’’ she‘rining Obid Azam tomonidan tarjimasi va undagi bo‘g‘inlar orasidagi farqli jihatlarni ko‘rib chiqamiz:

**Asliyat:**

*Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib, (6+5)*

*Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘rayman. (6+5)*

*Ul yulduz uyalib boshini egib (6+5)*

*Ayta-dur men uni tushda ko‘raman (6+5)*

*Oydanda go‘zaldir, kundanda go‘zal (6+5)*

**Endi tarjimada berilishiga e‘tibor qaratamiz:**

*I look at sky at night in darks, (5+3)*

*And ask you from the brightest star. (5+4)*

*That star inclining heads remarks: (5+4)*

*I always dream of her afar. (5+4)*

*In my dream she pretty thus (3+3)*

*Finer than the Moon and us!’’ (3+5)*

Ushbu she‘rning bo‘g‘inlari soni asliyat va tarjimadan bir-biridan ikkita bo‘g‘in kamligi bilan farqlanadi. Bugungi kunda o‘ziga xos o‘rin va mavqega ega bo‘lgan aruz vazniga ham misol keltirib o‘tsak:

„Masalan, Rahimjon Karimov o‘z tadqiqotlarida Boburning mashhur g‘azalining matlasini quyidagicha tahlil qiladi.’’

**Asliyat:**

*Charxning men ko‘rmagan jabru-jafosi qoldimu? (6+8)*

*Hasta ko‘nglim chekmagan dardu balosi qoldimu? (7+7)*

**Tarjimada berilishi:**

*There is no violence injury of fortune that I have not experienced; (15+9)*

*This broken heart has endured them all. Alas! (11+2)*

*Is there one left that, I have not encountered? (7+8)*

Bu tarjimada tarjimon mazmuni saqlab qolishga harakat qilgan va ba'zi kamchiliklarga ham yo'l qo'ygan. Masalan, bo'g'inlar soni jihatdan asliyat va tarjimada tubdan farq qiladi, qatorlar soni ham ancha o'zgargan. Tarjima mazmuni saqlashga harakat qilgan ammo she'riy tizim qoidalarini biroz unutgan. Yevropa va turkey tillar she'riy tuzilishini qiyosiy o'rganish, ular o'rtasidagi she'riy atamalar, she'riy tizimlarda katta farq borligini ko'rsatadi. Bu degani ingliz tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga she'rlar tarjima qilinmayapti degan xulosadan yiroq bo'lishimiz kerakligini anglatadi[3].

Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz joizki, har bir shoir va yozuvchi she'riy asarlarni tarjima qilish mobaynida turli xil ichki kechinmalari, ruhiy holati, qalb iztiroblarini boshidan o'tkazadi va o'z holatidan kelib chiqib yozadi. Shunda she'rning haqiqiy mazmunidan uzoqlashadi, tarjima ham she'rda aks etgan haqiqiy kechinmalar bilan emas balki turli xil holatlarda aks etishi mumkin. Agarda har bir shoir va yozuvchilar she'rning asliyatidan yiroqlashsa, bu she'riy asarning ma'no mazmunini yo'qotilishiga va e'tibordan chetda qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham she'rning mazmunini yoritib berish ya'ni shoir nima demoqchiligini tushunib yetish, yozuvchilarimiz uchun qiyin vazifadir. Vatanimiz mustaqilligi sharofati bilan ijod ahliga, jumladan tarjimonlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor tufayli, yurtimizda xorijiy tillardan bevosita ona tilimizga va ona tilimizdan bevosita xorijiy tillarga tarjima qila oladigan iste'dod egalari bo'y ko'rsata boshladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'ofurov I. Tarjima nazariyasi.-Toshkent 2012.19b
2. Abdulhamid Cho'lpon „Go'zal''.-Toshkent 1922.58b
3. Salomov G. Tarjima nazariyasi asoslari.-Toshkent 1983.170b
4. Azam O. tunes of Azia.-Toshkent 2004.21b,3b
5. Navoiy A. G'aroyib us-sig'ar. MAT.20 tomlik.-Toshkent 1988.586b